

AMUDARYO SUVNING QATTIQLIGINI ORGANIK REAGENTLAR YORDAMIDA ANIQLASH

Xolmirzayev D.T.- TerDU Kimyo fakulteti talabasi

Suyuniv J.R.- TerDU o'qituvchisi

E-mail: diyorbekxolmirzayev4@gmail.com

Daryo uzunligi 2400 km, daryo deltasi 534 739 km². Amudaryo hozirgi Tojikistonning Pomir tog'i etaklaridagi Panj va Vaxsh daryolarining birlashuvidan boshlanib O'zbekiston, Afg'oniston va Turkmaniston hududlaridan o'tadi va tobora qurib borayotgan Orol dengiziga quyiladi. Suvning qattiqligi – tarkibida Kalsiy (Ca²⁺) va Magniy (Mg²⁺) ionlari bo'lgan suvning xossasi. Suvning qattiqligi 2 xil: nokarbonat qattiqlik (doimiy qattiqlik) — suvda kalsiy va magniy sulfatlar erishidan kelib chiqadi; karbonat qattiqlik (vaqtinchalik qattiqlik) — suvda kalsiy va magniy bikarbonatlar erishidan hosil bo'ladi [1].

Amudaryo havzasida joylashgan mamlakatlarning suvga bo'lgan talabini e'tiborga olgan holda mavjud suv boyliklarini o'zaro taqsimlaydi (chunki har yili havzalarda turli miqdorda suv resurslari vujudga keladi). O'rta Osiyo davlatlari va Qozog'iston suv xo'jaligini muvofiqlashtirish davlatlararo komissiyasi ham Amudaryodan foydalanish bilan shug'ullanadi. Amudaryo havzasi ulkan gidroenergetika resurslariga ega. Jami gidroenergetika resurslari 63,2 mln. kVt ni tashkil qiladi. Havza bo'yicha mazkur gidroenergetika resurslarining 29,8% Panj, 38% Vaxsh, 5,6% Kofarnihon, 3,0% Surxondaryo, 1,0% Qashqadaryo, 5,4% Zarafshon, 17,1% Amudaryo havzalariga to'g'ri keladi. Hozirgacha Amudaryo havzasidagi gidroenergetika resurslarining faqat 2%dan ziyodroq qismi amadda foydalanilmoqda. Ishga tushirilgan gidroinshootlarning eng kattasi Vaxsh daryosining Pulisangin dasarida qurilgan Norak suv ombori va GESdir. 60-yillargacha Amudaryoda suv transporti keng yo'lga qo'yilgan edi. Lekin, keyingi yillarda Chorjo'y – **Qo'ng'iro't** temir yo'lini qurish hamda avtomobil yo'llari tarmoqlarining rivojlanishi, ayni vaqtda daryoning sayozlanishi natijasida umumiy yuk tashishda Amudaryo suv transportining hissasi keskin kamayib ketdi [2].

Suvning umumiy qattiqligi shu qattiqliklar yig'indisiga teng. Umumiy qattiqlik 1 l suvdagi kalsiy va magniy ionlarining milligramm ekvivalentlari yig'indisi (mg×ekv/l) bilan o'lchanadi. Qattiqligi 1-1.5 mg×ekv/litr bo'lgan suv o'ta yumshoq, 1.5-3 mg×ekv/l dan kam

bo‘lgan suv yumshoq, 3—6 mg×ekv/l bo‘lgan suv o‘rtacha, 6-10 mg×ekv/l o‘rtacha qattiq, 10 mg×ekv/l dan ortiq bo‘lgan suv esa juda qattiq suv hisoblanadi. Tabiiy suvning qattiqligi turlicha. Daryo va ko‘l suvining qattiqligi 0,1—0,2 mg×ekv/l (tayga va tundra), yer osti suvi, dengiz va okean suvining qattiqligi 80— 100 mg×ekv/l Suvning qattiqligi tufayli bug‘ qozonlari devorlariga cho‘kmalar cho‘kadi, kir yuvganda sovun ko‘p sarflanadi. Qattiq suvda sabzavot, go‘sht yaxshi pishmaydi va boshqalar. Suvning qattiqligi katta bo‘lsa, siydikda tosh paydo bo‘ladi. Markaziy suv ta‘minotida, asosan, iste‘mol qilinadigan Suvning qattiqligi 7 mg×ekv/l gacha bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi. Suvning qattiqligi katta bo‘lganda suvni yumshatish usullari qo‘llanadi [3].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Amudaryo>
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Suvning_qattiqligi
3. Parpiyev N.A., Raximov H.R., Muftaxov A.G – “Anorganik kimyo” Toshkent – ‘O‘zbekiston’ - 2003